

“MAMLAKATIMIZ TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ISTIQBOLLARI

Sh.Bozorov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filial
zali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

J.Nuriddinov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni
boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

O.N.Xaitov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

Annotatsiya:

Temir yo‘l transporti yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatish sohasida, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda yetakchi ro‘l o‘ynaydi. Temir yo‘l infratuzilmasi energiyani ko‘p talab qiluvchi soha bo‘lib, uning asosiy iste‘moli yoqilg‘i-energetika resurslari hisoblanadi. Shubhasiz, temir yo‘llarning atrof-muhitga salbiy ta‘siri va yoqilg‘i resurslaridan foydalanishda, boshqa transport turlariga nisbatana zarari kam hisoblanadi. Bunda, temir yo‘l transporti ichki ishlab chiqarish sikli va katta hajmdagi intensiv tashish ishlarini bajarilishini ta‘minlash orqali yashil iqtisodiyot rivojlanishiga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadi.


Kalit so‘zlar: Infratuzilma, resurslarni tejash, yashil iqtisodiyot

Kirish: Hozirgi vaqtda resurslarni tejoychi texnologiyalarni tadbiiq etish muammosi, tabiiy va energiya zaxiralarini tejash bilan chambarchas bog‘liq. Nazariy va amaliy paradigma bo‘lgan yashil iqtisodiyot, ijtimoiy, siyosiy va ekologik soha rivojlanish trayektoriyasini o‘z ichiga oladi. Bir qator davlatlar va ayrim kompaniyalar bu sohaga tobora ko‘proq e‘tibor qaratmoqda va ushbu paradigma maqsadiga erishish uchun o‘z imkoniyatlarini yo‘naltirishmoqda. Yashil iqtisodiyot, tabiat resurslaridan samarali foydalanishni, atrof-muhitning ifloslanish darajasini pasaytirish, zararli chiqindilarni kamaytirish, saqlash, tabiat resurslarini takror ishlab chiqarish va boshqalar o‘z ichiga oladi.

Transport infratuzilmasini takomillashtirish va eng ekologik toza transport turlarini yaratish yashil iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ayni paytda, ekspertlarning fikriga ko‘ra, temir yo‘l transporti atrof-muhitga eng kam ta‘sir qilishi ko‘p bor e‘tirof etilgan,


“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati doimiy ravishda yoqilg‘i- energetika resurslaridan optimal foydalanish, shuningdek, atrof-muhitga ta‘sirni kamaytirish vositalarini

izlaydi.



1-rasm. Transport turlarining CO₂ tarqatishi va energiya iste'moli bo'yichasolishtirma tahlili

Atrof - muhitga yetkazilayotgan zararni kamaytirish va temir yo'l transport sohasida alternativ yoqilg'i va energiya resurslari ishlatgan holda, elektr energiya, dizel yoqilg'isi, tabiiy gaz va benzin istemolini kamaytirish, yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash konsepsiyasining yo'nalishi hisoblanadi. Transport turlari bo'yicha 1-rasmda keltirib o'tilgan solishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transporti tashiladigan yuk va yo'lovchi kilometrda energiya sarfi 4.8 % va CO₂ tarqalishida 4 % egallab, eng past ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsada, bu temir yo'l energiya sarfi va CO₂ tarqalishini kamaytirish bo'yicha to'liq potensialida foydalanagan degani emas. Ichki tashuvlarda temir yo'l transporti salmog'ini oshirish, xizmatlar narxini barqaror nazorat qilib turish, yuqori raqobatbardoshlik darajasiga erishish va pirovard natijada yuqori rentabellikka erishish maqsadida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ bir qancha istiqbolli, samarasi uzoq yillarga mo'ljallangan investitsiya loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. Ushbu loyihalarda yashil iqtisodiyotga ko'mak beradigan loyihalar salmog'ini oshirish har doimgidan ham zarur hisoblanadi.



2-rasm. “O’TY” AJ ning lokomotiv eksplutatsiya parki

Temir yo’l transportida elektravozi va teplovozlarning sonini umumiy lokomotiv parkiga nisbati orqali, korxonaning yashil iqtisodiyotga o’tish tendensiyasini belgilab olishimiz mumkin. 2-rasmda lokomotiv parkining 63 % ni teplovozi tashkil qilishi, yoqilg’i-energiya sarfi yuqori ekanligini ko’rishimiz mumkin. Temir yo’l transportida doimiy xarajatlarning yuqoriligi, korxonaning rentabelligiga ta’sir etuvchi to’g’ridan-to’g’ri omillarga kiradi. Buni yuk tashish hajmi kamaygan paytda korxonaning moliyaviy ahvoli qanchalik o’g’irlashishida ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari, lokomotiv parkining qariyb 72 % ning 30 yildan oshganligi, xarajatlarda qismida joriy ta’mir salmog’ini oshiradi.

Mahalliy va global zamonaviy yashil yashil iqtisodiyot o’zgarishlarini hisobga olgan holda, biz quyidagi texnologik yo’nalishlarni ajratib ko’rsatishimiz mumkin:

- Energiya samaradorligi. Bunga zamonaviy energetika texnologiyalarini optimallashtirish bilan bog’liq masalalar (ekologik toza yoqilg’idan foydalanish, korxonalar uchun optimal ish rejimlari, muhandislik yechimlari va boshqalar), shuningdek, energiya resurslarining yangi va muqobil turlaridan foydalanish bilan bog’liq masalalar ham kiradi;

- Transportning dekarbonizatsiyasi. Temir yo’l transporti xizmat ko’rsatish jarayoni o’z ichiga oladigan texnologik zanjirlarining barchasida CO₂ gazlarini kamaytirish texnologiyasini joriy etish;

Atrof-muhit menejmenti. Qonuniy talablarni ta’minlash, shuningdek, zamonaviy yashil texnologiyalarni joriy etish uchun kompaniyalarning barcha ishlari kompaniya yoki sanoatning ekologik siyosatida e’lon qilingan maqsadlar bilan bog’liq bo’lishi juda muhimdir. Atrof-muhitni boshqarish tizimini joriy etish va qo’llab-quvvatlash kompaniyaga davrning yashil muammolariga o’z vaqtida va yetarli darajada javob berishga imkon beradi.

- Raqamlashtirish. Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalarida ustunlik qilmoqda. Yashil iqtisodiyotga raqamlarning kiritilishi, bir tomondan, ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan jarayonlarni sezilarli darajada tezlashtiradi, ikkinchi tomondan, yashil yechimlarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni; 2019-yil 25-dekabr
2. SH.A. Kadirova “Temir yo‘l tashish tannarxi kalkulyatsiyasi” T.: 2016 y101-b;
3. M.L. “Fayzixodjayeva Temir yo‘l transporti korxonalari iqtisodiyoti” T.:2012 y 283-b;
4. <https://www.minoeconomy.uz>
5. <https://www.mift.uz>
6. <https://railway.uz>

-